

JEK LONDONNING “MARTIN IDEN” ROMANIDA BOSH VA IKKINCHI DARAJALI OBRAZLARNING MUALLIF BADIY KONSEPSIYASINI IFODALASHDAGI AHAMIYATI

Munira Axmadjanovna KARIMOVA

O'qituvchi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Тошкент, Ўзбекистон

ЗНАЧЕНИЕ ГЛАВНЫХ И ВТОРОСТЕПЕННЫХ ОБРАЗОВ В ВЫРАЖЕНИИ АВТОРСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КОНЦЕПЦИИ В РОМАНЕ ДЖЕКА ЛОНДОНА «МАРТИН ИДЕН»

Мунира Ахмаджановна КАРИМОВА

Преподаватель

Узбекистанская международная исламская академия

Ташкент, Узбекистан

THE SIGNIFICANCE OF PRIMARY AND SECONDARY CHARACTERS IN JACK LONDON'S NOVEL “MARTIN EDEN” TO EXPRESS THE AUTHOR'S LITERARY CONCEPTION

Munira Axmadjanovna KARIMOVA

Teacher

Uzbekistan International Islamic Academy

Tashkent, Uzbekistan m.a.karimova@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 82.09

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Karimova M. A. Jek Londonning “Martin Iden” romanida bosh va ikkinchi darajali obrazlarning muallif badiiy konsepsiyasini ifodalashdagi ahamiyati. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 147-157.

<https://doi.org/10.36078/1688359454>

Received: April 30, 2023

Accepted: June 17, 2023

Published: June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada badiiy obraz, konsepsiya tushunchalari mohiyati ochib berildi. Shuningdek, Jek Londonning “Martin Iden” romani misolida bosh va ikkinchi darajali obrazlarning muallif badiiy konsepsiyasini ifodalashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Romanda ifodalangan g'oyani yuzaga chiqarishdagi vazifasi hamda badiiy asar to'qimasida tutgan o'rniga ko'ra tasniflangan bosh va ikkinchi darajali (yordamchi) obrazlarning mazmun-mohiyati muhokama qilindi. Asar voqealarining markazida turib, syujetni harakatga keltirgan, yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan asosiy g'oyani o'zida tashigan bosh obraz — Martinning ichki va tashqi portretiga xos chizgilar inson ruhiyati mohiyatini, yetakchi xususiyatlarini ijodkorning estetik ideali nuqtai nazaridan butun murakkabligi bilan qamrab olgan holda aks ettirish mezonini asosida izohlandi. Ba'zan asar markazida teng ahamiyatga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq obrazlar bo'ladi. Chunonchi, “Martin Iden”da yetakchi o'rinda Martin va Ruf obrazlari turadi. Bular — asosiy obrazlar yoki yondosh obrazlar bo'lib, biri ikkinchisining xarakterini yorqin ifodalashda xizmat qiladi. Badiiy asarda muayyan g'oyani ifodalovchi, nisbatan kam ishtirok etgan obrazlar — epizodik personajlar yoki yordamchi obrazlar asosan bosh qahramon atrofida birlashtiriladi. “Martin Iden” romanida yozuvchi bosh qahramon mikroxtopini ochishda ikkinchi darajali personajlardan samarali foydalangan. Maqolada Jek Londonning obraz yaratish mahorati psixologik va avtobiografik usul orqali tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz; konsepsiya; bosh qahramon; ikkinchi darajali qahramon; biografik obraz; ichki olam; roman.

Аннотация. В статье раскрыта сущность понятий художественный образ и концепция, а также проанализировано значение главных и второстепенных персонажей в выражении художественной концепции автора на примере романа Джека Лондона «Мартин Иден». В статье рассматриваются особенности основных и второстепенных (вспомогательных) персонажей, классифицированных по их функции в раскрытии идеи романа, и их место в масштабе художественного произведения. Образ главного героя, несущего основную идею произведения, интерпретируется на основе критерия отражения. Иногда в центре произведения находится два или более изображения равной важности. Например, в «Мартине Идене» на ведущем месте стоят персонажи Мартина и Руфи, один из которых служит для яркого выражения характера другого. В художественном произведении персонажи с относительно небольшим участием — эпизодические персонажи, или персонажи второго плана, — в основном объединяются вокруг главного героя, представляющего определенную идею. В романе «Мартин Иден» писатель эффективно использовал второстепенных персонажей для раскрытия микрохронотопа главного героя. В статье с этой точки зрения проанализировано мастерство Джека Лондона по созданию образа с помощью психологического и автобиографического метода.

Ключевые слова: художественный образ; концепция; главный герой; второстепенный герой; биографический образ; внутренний мир; роман.

Abstract. The article deals with the concepts of *artistic image* and *conception*. In particular, the importance of primary and secondary characters in expressing the author's artistic conception was analyzed on the example of Jack London's novel "Martin Eden". The role of main and secondary (auxiliary) images, classified according to their function in bringing out the idea expressed in the novel and their place in the texture of the artistic work, was discussed. The main character, who stands in the center of the events, sets the plot in motion and carries the main idea the writer wants to express, Martin's inner and outer portrait were interpreted based on the criterion of reflecting the essence of the human psyche, its leading features covering all its complexity from the point of view of the aesthetic ideal of the creator. Sometimes there are two or more images of equal importance in the center of the work. For example, in "Martin Eden" the characters of Martin and Ruth are in the leading place. These are major or adjacent characters, one of which serves to vividly express the character of the other. In an artistic work, characters with relatively little participation- episodic characters or supporting characters representing a certain idea — are mainly united around the main character. In the novel "Martin Eden", the writer effectively used secondary characters to reveal the microchronotope of the main character. Jack London's skill of image creation was analyzed through psychological and autobiographical methods.

Keywords: artistic image; conception; main character; secondary hero; biographical image; inner world; novel.

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda **badiiy obraz** deyilganda hayot hodisalarini konkret-individual shaklda qayta yaratish tushuniladi. Uning maqsadi va mohiyati borliqqa taqlid qilish emas, balki uni konkret shakllarda qayta ijodiy yaratishdan iboratdir.

Adabiyotda obraz soʻz vositasida reallashadi. Obrazga xos jihatlar predmetlilik, maʼno umumlashmasi va tarkibiylikdan iborat. “Adabiyotshunoslik qomusiy lugʻati”da keiltirilishicha, obraz tarkibi oʻzgaruvchandir. Badiiy vaqt va badiiy makon obrazning asosiy xususiyatlari sanalib, borliqni yaxlit qabul qilishni taʼminlaydi (4, 487). Adabiyotga hayotdagi hamma (inson, narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, oʻsimlik; koʻchma maʼnodagi soʻzlar, iboralar, leksik resurslar; ifoda-tasvir vositalari — mubolagʻa, kichraytirish, oʻxshatish, omonim, sinonim, antonimlar; anafora, epifora, asindenton va sh.k.) unsurlar kirar ekan, kirganda ham sanʼatkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhimi insonlashib va bir butunlik kasb etib muhrlanar ekan — ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir (3, 34).

Biroq V.G. Belinskiy taʼkid etganidek, sanʼatdagi eng oliy predmet — inson hisoblanarkan, demak, “obraz” atamasini insonga (badiiy asardagi insonga) nisbatan qoʻllash maʼquldir. Adabiyotda ana shu Insonga va unga asoslanib hayotning qolgan barcha predmetlari, hodisalari ham insoniylashadi, insonning badiiy kashfi uchun xizmat qiladilar.

Badiiy asardagi personajlar oʻzining asardagi mavqei, bajargan funksiyasiga qarab, ikki xil boʻladi. Agar personaj asar voqealari markazida turib, syujet voqealarini harakatga keltirsa, asar konfliktining hal etilishida yetakchi rol oʻynasa, ijodkor gʻoyasini ifodalasa, bunday personaj asarning **bosh obrazi** sanaladi. Masalan: *Martin Iden*. Koʻp hollarda asar markazida bir emas, bir-biri bilan teng mavqega ega boʻlgan bir necha obrazlar turadi. Masalan: Ruf Martin bilan bir qatorda asar syujetida harakatlanadi, bunday obrazlarning har ikkisi ham bosh obraz sanalaveradi. Agar personaj asar markazida turmasa ham, biror jihati bilan ijodkor gʻoyasini ifodalashga, uni toʻldirishga xizmat qilsa, bunday obrazlar **ikkinchi darajali obrazlar** sanaladi. Masalan: “*Martin Iden*”da *Brissenden, Mr, Mrs Morz, Jo, Gertruda* kabilar.

Ingliz tilida bosh va ikkinchi darajali obrazlar quyidagicha taʼriflanadi:

Bosh yoki asosiy qahramonlar (**Major or central characters**) asardagi ziddiyatni (conflict) rivojlantirish va hal qilishda benihoya muhimdir. Boshqacha aytganda, syujet, ziddiyat bilan kurash mana shu qahramonlar (characters) atrofida kechadi.

Kichik, yohud ikkinchi darajali qahramonlar (**Minor (Secondary or Supporting) characters**) bosh obrazni toʻldirishga, shuningdek, syujet voqealarini oldinga harakatlanishiga xizmat qiladi (6).

Bosh va ikkinchi darajali obrazlar tushunchasini anglagan holda badiiy konsepsiya ifodasiga eʼtibor qaratsak:

Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) adabiyotda bu tushuncha — biror asarning asosiy gʻoyasi demakdir. U badiiy asar mohiyatini, ijodkorning “meni”ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli boʻlishi mumkin. Baʼzan muallif moʻljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat eʼtibori bilan asar oʻz konsepsiyasiga koʻra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli boʻladi. Kitobxonning

ma'naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta'kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining konsepsiyasi tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi — usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi (5).

Demak, tadqiqotimiz obyekti "Martin Iden"da Jek London asar badiiy konsepsiyasini ifodalashda asosiy qahramon Martin va yordamchi obrazlar tizimini qanday harakatlantirganligini ayrim misollar yordamida tahlil qilsak.

Realistik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri — insonni hayotda bo'lganidek murakkab, ko'p qirrali, rang-barang xislatlar egasi qilib ko'rsatishdan iborat. Shunga ko'ra, adib Jek London obrazlarning rang-barangligi, estetik boyligi, ko'p qirraligi — hayotning murakkabligi taqozosi ekanligini o'zining betakror obrazlari bilan isbotlay oldi. Ayniqsa, biografik obraz Martin yetuk obrazdir. Chunki, Jek London Martin portretini yaratishda uning barcha belgilarini ifoda etishga harakat qiladi.

Bosh qahramon Martin Idenning obrazini to'la anglab yetishda uni qismlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Martinning tashqi qiyofasi quyidagicha tasvirlanadi: *"Uning ko'zlari nomusli odamning ko'zi, ularda na razolat va na makr bor. Uning quyosh tig'idagi og'ir mehnat natijasida qoraygan va qadoq qo'llari, bug'doyrang yuzi aslida oppoq bo'lgan: "O'z badanining Martinnikidek oqligi (oftob tegmagan yerlari, albatta) bilan maqtana oladigan ayollarning dunyoda juda kamdan-kamligi uning xayoliga ham kelmas edi. Uning og'zi suratdagi malaklar og'ziga o'xshab ketardi. Bu jangchi va oshiqning dudoqlari edi... Martinning iyagi va bir oz salobatli pastki jag'i amirona qiyofani ta'kidlardir. Undagi kuch, ehtirosini muvozanatda saqlab turardi, shuning uchun ham u sog'lom go'zallikni yoqtirar va sog'lom tuyg'ulargagina berilardi. Uning hali biron marta ham tish doktorining yordamiga muhtoj bo'lmagan sog'lom tishlari lablari orasida yiltillab ko'rinar. Tishlari oppoq, baquvvat va tep-tekis edi"* (1, 39). Martin Idenning tashqi qiyofasi chizgilarida muallifning subyektiv munosabati sezilib turadi. Uning terisi, dudog'i, tishlari tasviri shunchalar go'zal ifodalanidiki, beixtiyor bu qahramonga nisbatan kitobxonda simpatiya paydo bo'ladi. U jismonan sog'lom, shu qadar sog'lomki, bunaqasi mingta hatto o'n mingtadan bittada uchraydi. Shuningdek, baquvvat: *"qizning ayollarga xos sinchikov ko'zlari yigitning halpillatib tikilgan beso'naqay kostyumiga, yelkalarining qat-qatiga, baquvvat mushaklari turtib turgan yenglarining g'ijimiga tushdi"* (1, 8). Martin qiyofasi o'zgacha bir xislat bilan boyitilganki: *"O'zining ayollar qalbida muhabbat uyg'otadigan allaqanday xislati borligidan va ayollarning, aynan shu sababli astoydil urinishib, uning e'tiborini jalb qilishga intilishlaridan*

aslo bexabar edi” (1, 38). Martinning **kiyinishi** asar boshida: “*Uning egnidagi sodda, dag‘al kiyimdan dengiz hidi anqib turardi*”, deya tariflanib, asar yakuniga qadar uning oddiyligi saqlanib qoladi: “*U eng og‘ir kunlarida yolg‘iz qora kostumini, Ruf bilan ko‘rishish, Morzlarnikiga tashrif buyurish uchun zarur bo‘lgan yagona kastyumini, garovga berish evaziga kun ko‘radi*” (1, 276). Qahramon portretini yaratishda yozuvchi statik portret (nisbatan barqaror va o‘zgarmas tashqi belgilari: balandlik, gavda tuzilishi, terining rangi, ko‘zlar va sochlar aks ettiriladi) va dinamik portret (yuz ifodasi va mimika, yurish xususiyatlari va tana harakatlari, nutq uslubi kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi) belgilari uyg‘unlashtirilgan. Dinamik portret psixologik portret kabi Martinning ichki dunyosi va ruhiy holatini ochib berishda xizmat qiladi. Jek London Martinning dinamik portretini yaratishda tashqi ko‘rinishning batafsil tavsifini asarning bir o‘rnida batafsil bermaydi, balki butun matn bo‘ylab sohib yuboradi.

2. “Martin Iden” avtobiografik asar bo‘lgani uchun muallif Martin obraziga o‘zining **xarakterini** singdirganligi aniq: “*Uning tabiatidagi dilkashlik va xushfe‘llik xislatlari uning boshqacha harakat qilishiga imkon bermas edi ham*” (1, 55). Yana Martinga tug‘ma hazilkash deya ta‘rif beriladiki, shu hazilkashligi uchun Martinning o‘rtoqlari uni doim hurmat qilishardi (1, 87); “*U yolg‘on gapirishni xush ko‘rmasdi, buning ustiga yana, oqibati nima bo‘lsa-bo‘lsin, baribir, hamma vaqt rost gapiraman, deb ahd qilib qo‘ygani esiga tushib ketdi*” (1, 171); hamda “*Vazmin tabiat, xotirjam gapira olmaydigan, o‘z fikrini odob bilan bayon qilish o‘rniga, qizishib ketadigan, sabot ko‘rsatish kerak bo‘lgan yerda baqirib yuboradigan odam... — deya Ruf tilidan ta‘rif keltiriladi, — ... ammo Ruf Martinni tushunmasdi. Rasm-odat bo‘lib qolgan narsalarni qoralashini uning qaysarligi va sarkashligidan deb bilardi*” (1, 214, 248). Ha, ehtimolki tabiatida berilgan aynan shu rostgo‘ylik va qaysarligi sabab Martin butun asar davomida iztirobga mahkum etiladi. Ammo quyidagi ta‘rif va asar sujetidagi harakatlari uning moslashuvchan ekanligini anglatadi: “*Ruf Martinning diqqatga loyiq, muhim tomonlarini payqamas, yoki tushunmasdi, bu undan ham yomon edi. Inson hayotida mavjud bo‘lgan har qanday shaklga ham moslana oladigan halimday yumshoq bu odamni Ruf o‘jar va qaysar deb hisoblardi, chunki u Martinni o‘zi bilgan birdan-bir qolipga solishga ojiz edi*” (1, 212). Shuningdek, undagi realistlik qarash din tushunchasini inkor etardi: “*Martin ilohiy kuchga hech ishonmas edi. U hech qachon dindor bo‘lgan emas va inson ruhining boqiyiligi haqida va‘zxonlik qiluvchi ruhoniylar ustidan beg‘araz kulib yurardi. “U yerda” hech qanday hayot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, — derdi u o‘ziga o‘zi, — hayot faqat bu dunyoda — u yog‘i zulmat*” (1, 29). Uning xarakterida o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi yuksak etib ta‘riflanadiki, binobarin, aslida yetuklikning asosi ham o‘ziga bo‘lgan kuchli ishonchdadir: “*Men o‘z qudratimning nimada ekanligini bilaman. Buni hech kim mendan yaxshiroq bilmaydi. Men muvaffaqiyat qozonishimni bilaman. Men hamma to‘siqlarni yengib o‘taman*” (1, 284); “*Boshlangan ishni oxiriga yetkazib qo‘ymaguncha ko‘ngli*

tinchimaydigan odati bor edi uning” (1, 358). Martinning faqat o‘ziga bo‘lgan ishonchi va qat’iy harakatlari, shuningdek, maqsad sari tinimsiz turli yo‘nalishdagi adabiyotlarni o‘rganishi, kutubxonalarda soatlab ishlashi, yangi so‘zlar va ularning ma’nolarini ilg‘ashi uning xarakter dinamikasini ma‘nan yuksalishiga sabab bo‘ladi. Ruf Martinni aristokratlar davrasida o‘zini ularday tutishiga, nutqini jargon va vulgarizmlardan xalos bo‘lishiga erishadi. Sevgining qudrati, uning ta’sir kuchi Martinni boshqa inson sifatida evrilishiga olib keladi.

3. Muallif yaratayotgan obrazining **aql-zakovati va tirishqoqligini** quyidagicha izohlaydi: *“Uning miyasi xuddi xotiralar va uydirmalar to‘la kattakon omborga o‘xshardi, omborning eshigi esa doimo ochiq turardi. Qanday kor-hol ro‘y bermasin, Martinning xayoli o‘sha ombordan bir zumda bir-biriga o‘xshash yoki aksincha, bir- biriga zid narsalarni olib chiqardi-da, uni yorqin obrazlarda ifodalab berardi. Bu ish tamomila g‘ayri ixtiyoriy ravishda bajarilardi, mavjud hayotdan olingan har bir hodisaga, albatta, xayolan yaratilgan lavhalar qo‘shilib ketardi. Tunov kuni Rufning ko‘zida rashkdan paydo bo‘lgan uchqunlar unga oy nuridagi po‘rtanani eslatganidek, hozir professor Kolduell ko‘z oldida botib borayotgan quyosh nurlaridan qirmizi rangga bo‘yalgan dengiz manzarasini va shimoli — sharqiy tropik shamol quvayotgan oq ko‘pikli to‘lqinlarni keltirardi. Qahramonning tasavvur olami shu qadar boyki, inson fe‘l-atvoriga xos xususiyatlarni tabiatning betakror go‘zalligi bilan parallel idrok eta oladi. “Uning ko‘zi oldida har daqiqa sayin shu tarzda har turli manzaralar paydo bo‘lar, ammo ular Martinning fikr yuritishiga xalal berish u yoqda tursin, aksincha, uning mulohazalarini ravonlashtirardi. Ana shu manzaralar, ilgari Martin boshidan kechirgan hamma sarguzashtlarning, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va kitoblardan o‘qib bilganlarining aks sadosi edi, hamda ular muttasil — hushyorlik chog‘ida ham, uyqusida ham miyasida g‘ujg‘on o‘ynashardi”* (1, 250). Bu lavhada muallif Martin orqali asl yozuvchilardagi doimiy o‘y-fikr va taassurotlar ummoni manzarasini tasvir etgan. Shuningdek, u bosh qahramon hayoti, hatto o‘ylari chizmasini ham dengiz bilan bog‘laydi. Ya’ni asar va bosh qahramon portreti uchun borliqning asosi, soflik, poklik, shu bilan birga jo‘shqinlik, shiddat, g‘azabkorlik timsoli suv va uning oshyoni dengiz fonini asos qiladi.

“U hamma yerda ham osonlik bilan odamlarga darrov el bo‘lib ketardi, doimo hammaning hurmatini qozonar, negaki, ishda ham, o‘yinda ham orqada qolmas, o‘zini himoya qila olardi... u o‘z o‘rtoqlarini xursand qila olar, lekin o‘zining hech qachon ko‘ngli tinchimasdi. Uni doimo allaqanday tashvish bezovta qilar, qulog‘iga doimo uni allaqayoqlarga chorlovchi sado eshitilardi, shuning uchun u to kitoblar, san‘at va muhabbatga (hayotiy maqsadini belgilovchi asosiy detallar) erishguncha orom topa olmasligi, talabchanlik, o‘zidan qoniqmaslik hissi uni to ko‘zlagan natijasiga erishmaguncha doim harakat qilishga undashligini ifoda etadi (1, 251); *“Uning shaxsiy axloqining tamali aql — idrok edi, natijada, atrofidagi odamlarning axloq qoidalari, ularning dabdabali suratda valaqlashlaridan ham ko‘proq jig‘iga tegardi”* (1, 272); *“Biram chiroyli gapirasiz-a,- dedi*

Ruf, yo'q u avvallari chiroyli gapirmas edi. U tinimsiz sermashaqqat, uyqusiz mehnatlari evaziga chiroyli gapirish san'atini egallay oldi (1, 130). Joan Londonning yozishicha, kitobxonlarning katta qismi qahramonning fojiali halokatiga e'tibor bermagan va Martinning muvaffaqiyatidan ilhomlangan. Kitob yosh yozuvchilar uchun ham, mashaqqatli kurash orqali maqsadga erishishga majbur bo'lgan har bir kishi uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Aytish kerakki, hozirgacha "Martin g'oyalari" ko'pchilik uchun ularni qiyinchiliklarga qarshi kurashishga ilhomlantiradigan kitob bo'lib qolmoqda. Fojiali yakuniga qaramay, roman optimistik ruhda yozilgan. Romandagi voqealar o'zaro bir-biriga bog'liq ravishda takomillashib boradi. Martinning Rufga bo'lgan tuyg'usi, ularning shaxsiy munosabatlari, Martinning bilim olish uchun tinimsiz shug'ullanishi, uning zodagonlar jamiyatida o'z o'rnini topishi, bu jamiyat uning yozuvchilik qobiliyatini tan olishi uchun kurashi asarning asl mohiyatini tashkil etadi (2). Undagi bilim olishga, o'rganishga bo'lgan g'ayritabiiy jasorat kitobxonni butkul hayratlantiradi: "... *Lekin algebra va fizika darsliklarini yopish, qalamni bir chekkaga surib qo'yib, horg'in ko'zlarini yumishga jazm qilish hammadan ham mushkul edi. Shu qisqa muddat ichida ham hayot quchog'idan o'zini chetda his qilish Martin uchun nihoyatda mushkul tuyular, faqat besh soatdan so'ng budilnik meni yana uyg'otadi, degan fikr bilan u o'ziga tasalli berardi. U faqat besh soat yo'qotadi, so'ng quloqni kar qiluvchi qo'ng'iroq sadosi uni samarasiz g'aflat quchog'idan tortib oladi-yu, ixtiyorida yana o'n to'qqiz soatlik ish vaqti bo'ladi*" (1, 100).

Bir so'z bilan aytganda, Martin bilimga ishtiyoqmand, o'ziga talabchan, tirishqoq, kuchli intilish va zehn sohibi etib obrazlashtiriladi. Bu Brissenden tilidan berilgan ta'rifda ham namoyon bo'ladi: "*Madhiyalar bo'tqasi bilan qorin to'yg'izish uchun siz haddan tashqari mustaqil, haddan tashqari ochiq ko'ngil va haddan tashqari aqlli odamsiz*" (1, 301). Bu esa, kitobxonga ulkan motivatsiya berib, har qanday sharoitda faqat oldinga harakat qilishga chorlaydi.

4. Asar kulminatsiyasi Martindagi **his-tuyg'ularga** asoslanadi. Avvalo, uning yorga bo'lgan muhabbati muallif nutqidagi eng inja va sof so'zlar orqali bayon etiladi. Martin nainki ayol kishining yuragini, hatto toshni ham erita oladigan muhabbat sohibi etib yaratiladi (1, 190). U hayot yo'lini, maqsad-u intilishlarini ana o'sha sevgisi sabab o'zgartiradi, belgilaydi: "*U Rufga Tinch okeanining ulug'vorligi haqida yozishga jazm qildi. Bu fikr uni ijob qilishga undadi, u olam go'zalligi haqida yolg'iz Ruf uchun yozish bilan kifoyalanmaydi. Buning natijasida, Martinning miyasida porloq bir fikr paydo bo'ldi: u yozadi. U jahonning ko'zi, qulog'i va qalbi bo'lgan odamlardan biri bo'ladi. U hamma janrda yozadi, nazm va nasr, roman va ocherk yozadi, Shekspirga o'xshab pyesalar ham yozadi. Yuksak martabaga erishishning asl yo'li shu, shu bilan Rufning qalbiga ham yo'l ochiladi*" (1, 82);

"... u buyuk asarlar yozadi-yu, nomi tillarda doston bo'ladi. Lekin bundan ham muhimi, eng muhim narsalardan ham muhimi — o'shanda Rufga munosib bo'ladi. Shuhrat yaxshi narsa, ammo bu orzularini u shuhrat qozonish uchun emas, Ruf uchun ardoqlardi. U

shuhratning ketidan quvuvchilardan emas, faqat yor ishqida devona bo'lgan bir yigit edi, xolos" (1, 83). Muallif muhabbat tuyg'usini asarning ustuni qilib qo'yadi va uning atrofida shu ustunga tirgak bo'lishi kerak bo'lgan asoslarni, ijtimoiy — maishiy hayotni o'rnatadi: "Ijodga ishtiyoqi va yuragini orziqtirgan nafosatga tashnaligi bitmas-tuganmasligiga qaramay, u birinchi galda yolg'iz Rufni deb mehnat qilayotgan edi. U birinchi galda oshiq edi va qolgan hamma narsani shu ishqiga tobe qilib qo'ygan edi" (1, 104). Ayni damda muhabbat sabab bir-birlarini tushunmasdilar ham: "Martin Rufni haddan ortiq sevar, shuning uchun ham uni tushunmas edi, qiz esa uni shuning uchun tushunmas ediki, u Rufning odamlar haqidagi mahdud tushuncha doirasiga sig'masdi" (1, 313).

Ha, chin ma'noda u hayotini Ruf orqali boshladi, Ruf tufayli uni yorqin ranglar bilan bezadi va yana aynan shu muhabbati orqali ruhsiz tanaga aylandi, hayotiga yakun yasadi: "Martin endi boshqacha uslubda ishlay olmasdi. U atrofdagi narsalarni idrok qilmay, esankirab, karaxt bo'lgan odamday yozardi, xuddi arvoh o'ziga tanish bo'lgan yerlarda tentirab yurgani kabi, u ham o'zining o'tmish hayotidagi ijodiy mahoratiga murojaat qilardi. U kimningdir: arvoh, o'lganini bilmay qolgan marhumning ruhidir, degan so'zlarini esladi. Shunda Martin: o'zim ham shu ahvolga tushib qolmadimmikin? — deb bir zumgagina o'ylanib qoldi" (1, 360); "Martin hayajonlanganidan tili kalimaga kelmasdi. Uning Rufga bo'lgan muhabbati allaqachon qalbining teran yeriga dafn etilgan edi" (1, 407). Yozuvchining mahorati shundaki, Martin qalbida faqat o'zi tasavvur etgan Rufgagina joy bor edi. Haqiqiy hayotdagi Ruf esa uni zodagonlar jamiyatida o'rnini topishi uchun sabab bo'lsa, qalbidagi farishta uni haqiqiy inson bo'lib shakllanishiga zamin yaratdi. U qalbini maftun etgan malakka xos bo'lish uchungina o'zida shijoat topdi. "U qizni quchoqladi, ammo uning quchog'ida na harorat, na mehr-muhabbat bor edi. U qizni shunchaki, qo'llari orasiga olgan edi, vassalom" (1, 408); "U Rufni hech qachon chinakamiga sevmaganini aniq tushundi. U o'z tasavvurida bunyod etgan samoviy xilqatni, she'riyatning ilhom bulog'i, nurafshon porloq siymo bo'lmish Ruf ismli malakni sevar edi. Ammo burjuaziya ruhi bilan sug'orilgan va burjuaziya saviyasi bilan cheklangan haqiqiy Rufni hech qachon sevgan emas edi" (1, 414).

Umuman olganda, Martin obrazi murakkab obraz bo'lib, u asar boshida oddiy, qora ishchiga xos po'lat muskulli beso'naqay matrosdan asar yakuniga qadar turli qiyofalarda toblanib, nihoyat taqdir arzandasiga, kerakli inson, mashhur yozuvchi-ga, buning natijasida o'zini, o'zligini yo'qotgan, ruhi singan, hayotdan ko'ngli qolgan tirik murdaga aylantiriladi: "Martin buyuk adabiyot ufqidan misoli porloq yulduzdek uchib o'tardi. Pul degan daryoday oqib kelar, shuhrati mislsiz ortib borardi" (1, 387); "Hayot uning tinkasini quritar va qiynar, vaqt esa uni qattiq iztirobga solardi (1, 418)... U odamovi bo'lib qolayotgan edi (1, 420)... Uning ruhini hech nima, hattoki, bir zamonlar jon-dili bilan sevgan narsalar ham quvontira olmas edi" (1, 428).

Martin boshidan o'tkazganlari, hayot kuzatuvlari natijasida o'zi ustidan xulosaviy hukm o'qiydi: "Agarda o'z muhitimdan chiqib

ketmaganimda, kitobiy ilmlar orqasidan quvib, o'zini mendan yuqori qo'ygan jamiyat kishilariga ergashmaganimda, ming karra baxtliroq bo'lardim, deb qat'iy ishonch hosil qildi" (1, 373); *"Martin mantiqiy mulohaza yuritib, nihoyat, men endi hech kim ham, hech nima ham emas ekanman, degan shafqatsiz xulosaga keldi"* (1, 403). Muallif asar yakuni, shuningdek Martin obrazining tugallanmasini quyidagicha xulosalaydi: *"U birdan o'zini ko'lankalar vodiysida, ajal vodiysida ekanligini angladi. Uning hayoti tugagan; umr quyoshi so'nib, xiralashib, bota boshlagan edi. U hozir juda ko'p uxlashini va uxlagan sari yana ko'proq uxlagisi kelishini o'yladi, holbuki, yaqiningada u uyqudan nafratlanardi. Yigirma to'rt soatning to'rt soatini uyqu bilan o'tkazish, to'rt soat kamroq yashash demak edi. O'shanda u uyqudan juda bezgan edi! Endi esa u hayotdan shunday bezgan! Hayot uni toliqtirar, hayot achchiq edi. Uning halokati ana shunda edi. Hayotga intilmaydigan odam o'linga yo'l axtara boshlaydi"* (1, 422). Martin xos bo'lishga intilgan jamiyat uni shu kuyga solgan va u bu mahkumlikdan o'zini xalos qilolmas, buning yechimini faqat o'z halokatida ko'rardi.

Bosh qahramonlar bilan bir qatorda, ikkinchi darajali qahramonlar ham asar mavzusi va g'oyasini ochib beruvchi, syujet harakatlarini ta'minlovchi omillar vazifasini bajaradi.

"Martin Iden" asarida Ruf, Morzlar oilasi, Martinning opalari Gertruda, Merien va pochchalari Bernard Higginbotam, German Shmidt, janob Betler, Sudya Blaunt, Baqqol, hamda, chin qalb sohiblari Martinning do'stlari: Jo, Brissenden, Lizzi Konolli, professor Kolduel va yana ko'plab obrazlar asar tuzilmasida ishtirok etadilar.

Morzlar haqida, ularning jamiyatdagi pog'onasi, yashash muhiti haqida kitobxon asar boshlanmasidayoq tanishtiriladi. Ularning dabdabali uyi, o'zlarining viqorli zodagonlargagina xos ko'rinishi, chiroyli gapirishi, yeyayotgan taomi ular jamiyatning kibarlar qatlamiga mansub aslzodalar ekanini ko'rsatadi. Martin Morzlarnikiga borgan, ular bilan tanishgan ilk dafa, ularga ixlos qo'ygan, ularni va bunday jamiyat qatlamini hayotning eng yuqori o'rniga qo'yar va ularga intilar edi: *"U kitoblardan o'qib o'zlashtirgan olijanob fikr va tuyg'ular uni ma'naviy jihatdan boyitar edi. Ruf va uning oilasi mansub bo'lgan kibarlar davrasida hamma erkak va ayollarning aynan shunday fikr va tuyg'u bilan yashashiga endi uning imoni komil edi. Shu choqqacha u qandaydir iflos botqoqda yashadi, endi esa tozalanib, oliy darajaga ko'tarilishni istardi"* (1, 71). Ammo aynan shu pog'onagacha bo'lgan hayot so'qmoqlari, sinovlari, o'rgangan bilim-u olgan tajribalari Martinga aslida botqoqlik ana shu manzilning o'zi, kibarlar jamiyati ekanligini ko'rsatadi. U bu xulosani o'zi ham shu pog'ona vakiliga, zamonning arzandasiga aylangani holda qabul qiladi. Quyida muallif Morzlar va ulardek qarashlarga ega jamiyat vakillariga Martin tilidan, mister Betler, Charli Xepgud, shuningdek, pochchalari Xigginbotam va Shmidt obrazlari misolida, umumiy ta'rif keltiradi: *"Bu ayanchli maxluqlar hamisha bir-birlariga yer ostidan qarab, hamisha bir-birlariga taqlid qilishga urinadilar, ular o'zlari go'daklik chog'idan asir bo'lib qolgan bema'ni qonun-qoidalarni buzmaslik uchun o'z shaxsiy xislatlarini yo'q qilib tashlashga, jonli*

hayotdan voz kechishga tayyordirlar” (1, 275); “Endi xulosa chiqarishim mumkin; u odamlarning aksariyati qip-qizil nodon odamlar, qolgan to‘qson foizi chidab bo‘lmaydigan darajada ruhsiz odamlardir” (1, 256).

Aslida uning kamtarona, mashaqqatlarga to‘la hayotidagi do‘stlari Lizzi, Jim, Jo, Mariya, Brissenden asl inson, uning haqiqiy do‘stlari obrazida aks ettiriladiki, yozuvchi bu obrazlar orqali sertashvish hayotning chigalliklarini yechishda madadkor bo‘luvchi qalbi pok insonlar ham mavjudligini ko‘rsatadi: “Morzlarga Martin Idenning o‘zining ham, uning ijodining ham hech qanday ahamiyati yo‘q edi. Ular Martinning o‘zi va yozgan asarlari tufayli emas, balki Martinning shuhrati va nomi tufayli, ehtimolki, uning joriy schotida bankda yotgan yuz ming dollari tufayli u bilan yaqin munosabatda bo‘lishga intilardilar. Nachora, burjuaziya jamiyatida insonga baho berishning birdan-bir o‘lchovi shu, bu odamlardan boshqa narsani kutishning o‘zi g‘ayri tabiiy hol bo‘lur edi... Odamlar uning o‘zini yoki ijodini qadrlashlarini istardi... Lizzi uni aynan shunday qadrlardi. Hatto Martinning asarlari ham uning uchun unchalik ahamiyatga ega emas edi; hamma gap uning o‘zida edi. Jimmi va uning hamma eski og‘aynilari ham u bilan xuddi shunday munosabatda edilar. Ilgarilari ular o‘zlarining beminnat sadoqatlarini bir emas, bir necha bor isbot qilgan edilar” (1, 394).

“Martin Iden” da Ruf obrazi asosiy obraz qatorida tasvirlanadi. Bu obraz asar bosh qahramonining muhabbati o‘laroq, asardagi asosiy voqeliklarni harakatga keltiradi.

Ruf tasviri: “Ro‘parasida porlab turgan moviy ko‘zlari shahlo, oltin sochlari qalin, rangpar, nazokatli bir jonon turardi. Yigit qizning qanaqa kiyimda ekanligini payqamadi, lekin uning libosi ham o‘zi singari g‘oyat ajib ekanligiga ishonardi. U xayolan qizni nozik bandli och sariq oltin rang gulga o‘xshatdi. Yo‘q, aniqrog‘i u ilohiy ruh, pari, ma‘buda edi — negaki, bunday olijanob nafosat yer yuzida uchramaydi” (1, 7). Paridek husn-u malohatga ega bu qizning ichki dunyosi, fikr-u o‘ylari quyidagicha ta‘rif etiladiki, bu asar bosh g‘oyasini yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etgan: “Ruf tor fikr yurituvchi kaltafahm odamlar toifasiga mansub edikim, bu kaltafahmlik ularni, faqat bizning o‘z irqimiz, dinimiz va siyosiy maslagimizgina yaxshi, shulargina haqqoniydir, yer yuzining hamma burchaklariga tarqalib ketgan jamiki odamlar bizdan birmuncha past pog‘onada turadi, deb o‘ylashga majbur etardi... Bu xususiyat qizda mutlaqo boshqacha sharoitda o‘sgan bu odamni (Martinni) qo‘lga olib, o‘z toifasidagi odamlar timsolida uni qayta tarbiyalash istagini uyg‘otardi” (1, 80). Mana shu istak Martinda yangi hayot uchun ishtiyoq uyg‘otdi, uni harakatga undadi va uni o‘ldirdi.

“Lekin zohiriy belgilarga qarab baho berishga, hammaga manzur bo‘lgan narsalarga sajda qilishga o‘rganib qolgan Ruf, Martinning fikrlariga shu nuqtai nazardan baho bera boshladi” (1, 218). To‘g‘ri, u Martinni butun vujudi bilan sevdi, unga talpindi, ammo: “Rufning yo‘li boshqa edi. U Martinni Martin bo‘lgani uchun sevib qolgan, bu sohada hech qanday shubhaga o‘rin yo‘q edi. Lekin u Ruf uchun naqadar aziz bo‘lmasin, burjuaziya bid‘atlari ustun

chiqdi. Qiz uning mashg'ulotini asosan, daromad keltirmagani uchun ma'qullamagan edi" (1, 394). Butun asarning fojeaviy asosini nozik xilqat vakili tiynatiga joylay olish faqatgina mahoratli adib mahsulidir.

Umuman olganda, adib asarini mazmunan boyitish, asosiy g'oyani yetkazib berishda turli obrazlar silsilasidan mohirona foydalana ogan.

Xulosa. Adabiy obraz tushunchasini xulosa qilsak, u kishilar va hodisalarga xos xarakterli tipik xususiyatlarni aniq, individual yondashilgan holda umumlashtirishdan iboratdir. Yozuvchi obrazlar orqali turmushning muayyan tomonini tasvir etar ekan, hayot hodisalari ustidan hukm chiqaradi. U kishilar obrazining o'zaro bog'lanishi, harakatlari va kurashini tasvirlash orqali turli sharoitlardagi odamlarning ijtimoiy xulqi va tabiat hodisalariga munosabatini ochib beradi, kitobxonlarda ham o'shanday axloq va kayfiyat tug'diradi.

Bosh qahramon spetsifikasini ochib berish, asarda motivlarni jonlantirish uchun yozuvchi ikkinchi darajali qahramonlarni mahorat bilan "payvandlab", asarga olib kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. London J. Martin Iden. Ruschadan Qodir Mirmuhamedov taijmasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. — 608 b.
2. London J. Jack London and his times, Published by University of Washington Press, 1968. Description: XVII, 385 p.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — B. 34-bet.
4. Литературный энциклопедический словарь/ Под редакцией В.М.Кожевникова, П. А. Николаева. — М.: СЭ, 1987. — С. 487.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000. — URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsepsiya>↑.
6. <https://www.hohschools.org/cms/lib/NY01913703/Centricity/Domain/378/Characterization%20upload>.

References

1. London J. *Martin Iden* (Martin Eden), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2016, 608 p.
2. London J. Jack London and his times, Published by University of Washington Press, 1968. Description: XVII, 385 p.
3. Umurov. H. *Adabiyotshunoslik nazariyasi* (Theory of literary studies), Tashkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, 34 p.
4. *Literaturniy entsiklopedicheskiy slovar* (Literary encyclopedic dictionary), Edited by V. M. Kozhevnikov, P. A. Nikolaev, Moscow: SE, 1987, 487 p.
5. *Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild* (National Encyclopedia of Uzbekistan. The first volume), Tashkent, 2000, available at: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Conception>
6. <https://www.hohschools.org/cms/lib/NY01913703/Centricity/Domain/378/Characterization%20upload>.